

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI KAFEDRASI

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanidan

KURS ISHI

MAVZU: “SABOT UL- OJIZIN”DAGI HIKOYATLAR
GENEZISIGA DOIR

2014-2015-o‘quv yili

Bajardi: 201-guruh talabasi Babakulova N.
Ilmiy rahbar:dots. S.Q.Tohirov

Kurs ishi o‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasida
himoya qilindi va _____ga baholandi. (Bayonnoma _____ №2015)

Komissiya raisi: prof. D. Salohiy

Komissiya a‘zolari: dots. G. Xoliqulova
kat. o‘qit. A. Muhammadiyev
o‘qit. N. Muhiddinova

Samarqand – 2015

MAVZU: “SABOT UL -OJIZIN”DAGI HIKOYATLAR GENEZISIGA DOIR

Reja:

I. Kirish So'fi Olloyorning “Sabot ul -ojizin” asari haqida umumiy ma'lumot

II.Asosiy qism:

1. So'fi Olloyor hayotiy faoliyati va adabiy merosi.
2. So'fi Olloyorning “Sabot ul- ojizin” asarida hikoyatlar tasnifi.
3. “Sabot ul -ojizin”dagi hikoyatlarning qiyosiy tahlili.

III.Xulosa

I. So'fi Olloyorning "Sabot ul- ojizin" asari haqida umumiy ma'lumot.

"Sabot ul-ojizin" So'fi Olloyorning masnaviy shaklida yozgan asari bo'lib, kitobda Islom aqidasi masalalari Qur'oni karim va sunnat talablari asosida bayon qilingan. Asarning asli "Maslakul muttaqiyn" eski maktablarning yuqori sinflarida o'qitilgani uchun juda keng tarqalgan kitoblardan bo'lgan. "Maslakul muttaqiyn" masnaviysi fors tilida edi. Juda ko'p iltimoslardan so'ng So'fi Olloyor uning asosiy qismini "Sabot ul-ojizin" nomi bilan qisqa bayonda yozdi. Bu kitob ham juda tez shuhrat qozondi. Ammo uning bayon uslubida va tilida arabiy, forsiy va yana boshqa lahjalardan so'zlar ko'p ishlatilgani masnaviyni tushunishni ancha qiyinlashtirgan. Shuning uchun "Sabot ul-ojizin"ni sharhlash ehtiyoji yuzaga keldi. Bu ehtiyojni qondirishga Tojuddin ismli kishi kirishib, sharh yozadi va unga "Risolai Aziza" nomini beradi. Zero, sharh qizi Azizaning bir necha bor iltimosi bilan yozilgan edi. Ushbu sharh bilan tanishib chiqqan kishi uning muallifi o'z davrining bilimdon allomalaridan bo'lganini tan oladi.

"Sabot ul-ojizin" baytma-bayt sharhlangan. Sharhning usulini ko'proq nahviy tahlil tashkil qilib, baytlarning badiiy tomonlariga ham ahamiyat berilgan. Ko'pgina hollarda so'z o'yinlarida ishtirok etgan so'zlarning kelib chiqish manbalari haqida gapiriladi. Baytning sharhi tugagach, shorih bayt ma'nosini ochib beruvchi qo'shimcha ma'lumotlar ham keltiriladi. Bu ma'lumotlar rivoyatlarga asoslangani uchun bayt sharhidan ajratilib, qavs ichiga olingan holda berila boradi.

Sharhlarning bayonida tatarcha va usmonli turkcha so'zlar qorishib kelgani uni tushunishni ancha qiyinlashtirib qo'ygan. Shuning uchun biz sharhlar bayonini hozirgi o'zbek tiliga yaqinlashtirgan holda berishni ma'qul ko'rdik. Ba'zi hollarda rivoyatlardan keltirilgan ma'lumotlarni ham tushirib qoldirildi. Chunki bu ma'lumotlar hozirgi kunda eskirib qolgan bo'lib, o'quvchini noo'rin taajjubga solib qo'yishi mumkin bo'ladi. Ba'zi

baytlarning sharhlarida yo'l qo'yilgan g'alizliklar aniq sezilib turgan hollarda ham shorihning sharhlari o'rniga muharrirlar taklif qilgan sharhlar shaklini keltirilgan hollarda berildi. Boshqa hollarda sharhlarda ayrim kamchiliklar sezilib tursa-da, shorihning asarni tushunishda o'z ra'yi bor ekanligini ko'rsatish uchun ular o'z o'rnida qoldirildi. Ushbu nashrning "So'fi Olloyor haqida" deb nomlangan qismida biz So'fi Olloyorning hayotiga oid ma'lumotlarda masnaviyning shorihi o'z sharhida keltirgan barcha xabarlarni o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Ammo "Sabot ul-ujizin" ga sharh yozgan Tojuddin Yolchiqu'lning sharhga "Kirish" qismida va sharhning ichida kelgan mazkur xabarlar shubhali ko'rinadi. Chunki ular S.Ayniy va Qayumiy tazkiralarida So'fi Olloyor xususida keltirgan ma'lumotlar bilan tasdiqlanmaydi. Biroq kelgusida Tojuddinning xabarlari to'g'ri chiqishi aqalli nimalarga asoslanganligi ochilishi mumkin bo'ladi.¹

So'fi Olloyor Turkiston xalqlari o'rtasida mutasavvuf shoir va adib sifatida keng shuhrat qozongan yirik allomalarimizdan biridir. U zoti pokning ismi Olloyor, padari buzrukvorlarining ismi esa Allohqulidir. So'fiy martabasi uning shariat va tariqat yo'lidagi e'tiqod hamda xizmatlari uchun berilgan.

Tatar tarixchisi Tojuddin Yolchiqu'l o'g'lining 1797 yil Qozonda nashr etilgan "Risolai Aziza" (So'fi Olloyorning "Sabot ul-ujizin" asariga yozilgan sharh) kitobida ko'rsatilishicha, So'fi Olloyor 1644 yilda tug'ilgan. So'fi Olloyor avlodlari, shuningdek akademik B.Valixo'jayev, professor B.Hasanov, professor SH.Sirojiddinov va boshqalarning so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, So'fi Olloyor 1634 yilda tug'ilgan, deb qayd etiladi. Buyuk so'fiyning hijriy hisob bilan 90, milodiy hisob bilan esa 87 yosh umr ko'rganligini e'tiborga olsak, uning tavallud sanasi 1634 yil ekanligi aniq bo'ladi. So'fi Olloyor shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlar uning o'z asarlarida tarqoq holda uchraydi.¹ "Risolai Aziza" asarida bayon etilishicha, shoir 1634 yil Miyonqol mavzeiga qarashli Minglar qishlog'ida tavallud topgan bo'lib,

¹Рисолайи Азиза- Сабот ул-оужизин шарҳи. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашрийоти, 2000. 3-4-бет.

xitoy-qipchoq qabilasining O'tarchi urug'idandir.

So'fi Olloyor ham o'zining Miyonqol vohasining O'tarchi urug'idan ekanligini takror-takror tilga oladi:

Garchi Olloyor O'tarchidir yomon,
Qo'ymag'il dushman qo'liga muftalo.

yoki

Garchi Olloyor O'tarchidur, eur ul ham yamon,
Oning ham qadri o'tar bir nechaga o'lgan zamon.

Olloyor bu misralarda o'zining qaysi qabilaga mansubligini, shuningdek, bu dunyoda u bir o'tkinchi ekanligini ham bayon etadi. Dunyoning foniy, bebaqoligiga ishora qiladi.

So'fi Olloyor o'zbek adabiyoti tarixida Boborahim Mashrab, Turdi Farog'iy bilan bir qatorda turuvchi zabardast shoirgina emas, yirik olim hamdir. Adibning «Murodu-l-orifin» asarida ta'kidlanishicha, undan «Maslaku-l-muttaqin» («Taqvodorlar maslagi»), «Sabotul ojizin» («Ojizlar saboti»), «Maxzanu-l-mute'in» («Mutelar xazinasini»), «Murodu-l-orifin» («Oriflar –donolar murodi») hamda «Qiyomatnoma», «Muborak haj safari» kabi asar, ko'plab lirik she'rlari meros bo'lib qolgan. Olloyor ijodining ma'rifitimiz tarixi uchun muhim jihatlaridan biri shundaki, eski usul maktablarida to'rt kitob: «Haftiyak», «Chahor kitob», «So'fi Olloyor» va «Hofiz» o'qitilishi shart bo'lgan. Keksalarning xotirlashlaricha, XX asrning boshlarida respublikamizning turli joylarida o'ziga xos «Olloyorxonliklar» o'tkazilib turilgan. So'fi Olloyor turkiy va forsiyzabon xalqlar orasida juda mashhur bo'lgan. O'tmishda yashagan bir muallif So'fi Olloyor vafotiga tarix yozarkan, uni «Abu Hanifai vaqt ast» («O'z zamonasining Abu Hanifasi, ya'ni Imomi A'zami») deb baholaydi. Ma'lumki, Imom A'zam o'z davri Qur'oni karim va hadisi sharif ilmlari asosida shariat ahkomlarini tartibga solgan, «Shariat ahkomlari haqida» nomli ilk fiqhiy asar muallifi edi. So'fi Olloyor ham o'z davrida Imom A'zam kabi davlat tili bo'lgan forsiy va turkiy tillarda shariat ahkomlari haqida ikkita kitob yozib qoldirgan. Ushbu

mulohazalarning o'ziyoq So'fi Olloyor shaxsiyatining naqadar buyukligini isbotlaydi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotimiz tarixini ilmiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish ehtiyoj va zaruriyati So'fi Olloyor hayoti va ijodi haqidagi qarashlarni ham ilmiy o'zanga solib yuborishni taqozo etadiki, bu sohada ham sa'y-harakat jadallashmoqda.

Adabiyotshunos olim Sul-tonmurod Olimning «So'fi Ollohyorning so'nggi karomat-lari» maqolasida mutafakkir to'g'risida quyidagi satrlar bor: «So'fi Ollohyor faqat shoirgina bo'lib qolmagan. U kishi avvalo shayx-avliyo o'tgan... Alloma shoirning shaxsiyati hayot yo'li to'g'risida xalq og'zida va turli manbalarda har xil rivoyatlar mavjud.

Biz ularni 2 guruhga ajratib o'rganishga harakat qildik. Birinchisi shoir shaxsiyatiga oid rivoyatlar. Tojuddin Yolchiqu-lning «Risolai Aziza»¹ –da keltirgan rivoyatlari bunga yaxshi misoldir. Jumladan, u So'fi Ollohyorning piri-murshidi Habibullohning hayoti, faoliyatini birma-bir ko'zdan kechirib, tadrijiy tahlil etadi. Bunday tahlil islom olamini yorqin siymolaridan biriga aylangan mutafakkir shoirning dunyoqarashini shakllantirishda, to'plashda salmoqli hissa qo'shgan insonning o'zi kim bo'lganligi, So'fi Ollohyor o'zining katta bilimi, yuksak san'at va oliy mahoratini charxlashga kimlardan ilhom olgani, qaysi chashmalardan bahra olganligi to'g'risida o'quvchilarda yaxshi tasavvur hosil bo'lishiga yordam beradi. Xo'sh hazrat Habibulloh kim bo'lgan?

Bu to'g'rida Tojuddin ibn Yolchiqu-l-dan quyidagi rivoyatni keltiramiz. «Tarix hijratning ming yuzinchi yilida Buxoro xalqi toat va ibodatga yalqov bo'lib bid'at ishlarni suymak xususida ya'ni qiladigan tarzda bo'ldilar (alqissa) bular to'qqiz yil bad va bid'at ishlar ortidan yurub asli dinlari qariyb xarob o'lay deb qolgan edi. Kunlardan bir kun Buxorodagi Riston degan bozorda bir kishi qovun

¹ Ўзбекистон Республикаси ФАШИда бу асарнинг бир қўлёзма нусхаси сақланади.Тартиб рақами – 849, 345 в. XIX асрнинг бошида кўчирилган, хаттоти номаълум.

va tarvuz sotib yurar emish, u kishining ismi Habibulloh ekan. U ko'p kishilar bilan gaplashib Buxoroda dinni yo'qolib ketganligini fahmlabdi. Buxoroning bunday ahvolini ko'rib u zor-zor yig'laydi, avliyolarning ilmi qulaganidan ko'p o'ksinadi. Kunlarning birida Xo'ja Bahovuddinning qabriga borib juda yolvoradi, so'ng uyiga kelib uxlab qoladi. Tushida Xo'ja Bahovuddinni ko'radi: u kishi o'rta bo'ylik, ko'k ko'zlik, qizil soqolli edi...»

Xullas, tushlarida Xo'ja Bahovuddin ul muborak zotni go'yo Samarqandga, muridlaridan biridan ta'lim olmoqqa yo'llaydilar. Uning ismi Andarjon So'fi ekan. Ana shu kishidan ancha vaqt ta'lim olib bo'lgandan so'ng ustozlari ul kishini Buxoroga «haqiqat yo'lidan ozgan» xalqni ko'zini ochib qo'yish, unga ma'naviy rahnamolik qilish uchun yuboradi. «...Habibulloh o'sha chog'lar yigirma yoshda edi. Aytdi: Ey shayx, sizning so'zlaringizni e'tiroz aylamak kuflikdandir. Lekin bir majlisda aytgan erdingizki, shayx bo'lgan kishiga to'rt holat kerak. 1) Hol kerak: 2) Qol kerak: 3) Sol kerak: 4) Mol kerak.

Shu o'rinda bu so'zlarga qisqacha izoh berib ketaylik:

Tasavvufda:

Hol ilmi- odamlarning ruhiyati, el-yurtning botiniy ahvoli, ma'naviyati ularni tarbiya qilish usullarini tahlil qilib, o'rganib chiqib shunga yarasha dastur tuzib, shu asosda ish yuritish (bunda nazarda tutilgan xalq ta'limoti dinga, xurofotga berilish darajasi ham tahlil qilinadi, qaysi viloyatdan elining dunyoqarashi qay tarzda shakllanishini aniqlash, - hol deyiladi. Hol-qalb, sir va haqiqat ilmi. Abdurahmon Jomiy bu ilmni quyidagicha tasnif etgan: iymon, ehson, ikon, tavba, zuhd va taqvo, ixlos, nafsni tanish, qalbni anglash, nafs va qalbni poklash, ishorat va ilhom asaridagi farqni bilish, xitob, yashirin nido, Olloh kalomini bilish, mushohada va tavhid, maqom va hol yaqinlik va uzoqlik, vuslat, fano va baqo, sakr holi, sahv holi ilmi kabilar.

Qol ilmi- falsafiy nazariyalarni hamda sha'riy fikrni (to'g'rilik, halollik, shariatdagi fiqh, qonun qoidalari) usullari. Bunda suhbat, ma'viza, ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish uslubi tushuniladi.

Ahli qol- o'z hayoti, qismati va tajribasi bilan bog'lanmaydigan gaplarni takrorlashdan nari o'tolmaydigan kimsalar guruhi. Dil emas, til, ma'no emas, da'vo bilan yashash yo'lini tutgan gumroh, munofiqlar jamoasi.

Sol ilmi- ham aqlan, ham jismonan, ham yosh jihatidan to'liq kamolot darajasiga etishlik. Shu jihatlar orqali insonlarni el e'tirof etadi.

Mol ilmi- har bir inson o'zining molu dunyosiga ega bo'lmasa, ta'ma degan balodan qutula olmaydi. Mol ilmini – ta'madin chetda, mol-dunyoni o'zingga do'st tutmay xalq uchun fidokorona mehnat qilish vositasidir. Shundan so'ng rivoyatda aytilishicha Habibulloh Buxoroga yetib borib, bir eski do'konda joylashib oladi va o'zining karomatlari bilan Buxoro amiri va elini lol qoldirib, martabasi ulug'lashadi va har tomondan tarbiya olish, ilm o'rganish uchun odamlar u kishining qoshiga kela boshlaydi. Rivoyatning shu yeridan So'fi Ollohyor to'g'risida so'z boradi. Bu o'rinda biz muhtaram olim I.Suvonqulovning: «Risolai Aziza» da ayrim e'tirozli o'rinlarga ham yo'l qo'yilgan. Masalan, So'fi Ollohyorning no'g'oy qavmidan bo'lgani, Qozonda yashagani haqidagi ma'lumotlar aniqlik kiritishni taqozo etadi...»¹ degan fikriga qo'shilamiz.

Endi rivoyatga qaytsak, unda hozir ham deyarli hamma maqolalarda uchraydigan, - shoirning dastlabki davrlarda Buxoro amirligining zolim va rahmsiz amaldori bo'lgan, degan fikrga duch kelamiz: «...25 yoshida Buxoro podshohi boj mahkamasiga to'ralik qilib, g'oyat qon to'kuvchi va xulqsiz bo'ldi. Doimo fisq va fujur va isyonda erdi. Kunlardan bir kun Riston bozorida Shayx Habibullohning bir muridi va bir xalifasi bozorgonlardan bir narsa oldi. Boj mahkamasini ma'lum aylamadi. Olib borurda Ollohyor to'raga muloqotda bo'ldi. «Ey, nechuk boj mahkamasiga tamg'alatmasdan olib borursan, deb tutdi va qamchi bilan qattiq urdi. Muridning boshi yorildi, qonlar oqdi. Shayx Habibulloh oldiga borishdi. Ollohyor ustidan shikoyat qilishdi. Shayx Habibulloh aytdi, - sabr ila meni oni sizlarday aylayin, deb qo'lini duoga ko'tarib, bu to'rani bulardek g'arib-ko'ngil

¹ Сувонкулов И. Сўфи Оллоҳёр. Тошкент. Фан, 1995. 69 –бет.

aylagil, dunyo va oxirat murodini bergil, deb duo ayladi. Og'zidan chiqmasdan burun Oллоh taolo duosini qabul ayladi shul soat Oллоhyor to'raning ko'ngliga g'avg'o tushdi. O'zining yomon fe'llarini esiga tushirib yig'ladi, so'ngra og'zini ochib aytgan baytlari budir:

Mening boshimga xush savdo tushibdur,
Ko'ngil bozorina g'avg'o tushibdur.
Dedim ey tan ne savdodir, ne ishdur,
Sipohingga qilich birla urushdur.

deb shayx hazratlariga yig'lab keladi. Ostonada xonqada tiz cho'kib o'tiradi: ey hazrat, meni ham o'z yoningga olib yordamchi muridlaringdan qilib olgin deydi...

Rivoyat matnidan sal chekinaylikda, mulohaza yuritaylik: bu qanchalik haqiqatga to'g'ri keladi? Yuzaki qaraganda, bu shunchaki rivoyat mazmuni bilan tanishish jarayonida miyada yilt etgan birinchi hayoldek ko'rinadi. Lekin yuqoridagi naql bizga g'alati bir sirni ochgandek tuyuladi, ijod ahliga dahldor bo'lgan kishi xohlasa-xohlamasa, har bir narsani, hatto ko'z oldidagi voqelikni ham xuddi tashni yo'nib haykal yasagani kabi o'zining ijod mazmuniga yo'naltira olar ekan. Russiyaning bulg'or qavmidan bo'lgan Tojuddin ibn Yolchiqu'l o'zining muarrix, olim bo'lganligidan tashqari mohir ijodkor ham edi, uning qalamiga mansub bo'lgan «Risolai Aziza» ko'plab kitobxon, tadqiqotchi va toliblarning diqqatiga manzur bo'lgan, o'zining mazmun-mohiyati, tarixiy tafsilotlarni sharhlash, tarixiy va diniy arboblarning hayotidan olingan lavhalarni yoritib berishi bilan hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayni paytda u ijodiy erkinlikdan ham holi emas. Bu xususda boshqa olimlar fikriga e'tibor beraylik: «...To'g'ri So'fi Oллоhyor amaldor bo'lgan, biroq amaldagilarning bari zolim, rahmsiz bo'lishi qonuniy emas-ku! Shunday ekan u yoki bu mashhur kishining hayoti ijodi haqida fikr yuritganda rivoyatlarga emas, hayotiy dalillarga suyanish lozim...»¹ deb yozadi I.Suvonqulov. Bu o'rinda...

¹ Сувонкулов И. Сўфи Оллоҳёр. Тошкент. Фан, 1995. 2-4 –бет.

Ijodi haqida fikr yuritganda» degan joyiga «xususan, ilmiy xulosalar chiqarishda» deb ilova qilib qo'yishni lozim topardik.

Endi yana yuqoridagi rivoyatga qaytsak... Hazrati Habibulloh uni (So'fi Oллоhyorni – N.B.) qabul qilmasligini aytadi.

Oллоhyor yig'lab yolvoradi. Shunda shayx Habibulloh aytadiki, mayli men seni o'z yordamchiligimga olaman, faqat shart bilan. Shartning birinchisi, - qishloq dagi barcha uyiga kirib, eski juldur ust bosh bilan tilanchilik qilib chiqasan. Ikkinchi shartimni birinchini bajarganingdan so'ng aytaman, debdi. Oллоhyor Habibulloh aytgani kabi butun qishloqni tilanchilik qilib aylanib chiqibdi. Uni ko'rgan va bilganlar Oллоhyor tentak bo'lgan deb o'ylashibdi. Shundan so'ng shayx ikkinchi shartni aytibdi: bozorga borib qassob do'konidan bir xo'kizning to'rt tuyog'ini, terisini, kalla va qorinlarini olasan so'ng boshingga dastor (salla) qilib olasan so'ng butun bozor ichini aylanib chiqasan, deb aytibdi. Oллоhyor shayx aytganiday qilib, bozorni aylanibdi. Oллоhyorning uch xotini va uch farzandi bor edi. Bir qizining nomi Omina. Ikkinchi qizining ismi Halima. O'g'li Muhammad Sodiq edi. Ular otasining bu ahvolini ko'rib, otamiz jinni bo'libdi, deb xulosa chiqaribdilar. Shayx Habibulloh esa Oллоhyorning chin e'tiqodiga ishonib, uni o'ziga muridlikka oldi. Shundan so'ng Oллоhyor shayx xizmatiga 12 yil bo'ladi...» Bu yerda hayotiy haqiqat bilan badiiy to'qimaning uyg'unligi hamda badiiy umumlashma va badiiy shartlikning ro'y-rost voqe bo'lishi muammosiga duch kelib turibmiz. Lekin nima bo'lmasin, Tojuddin ibn Yolchiqul bir narsani – So'fi Oллоhyorning ruhan buyukligini e'tirof etadi, tan oladi. Donolar aytganidek, haqiqiy buyuklik-ruhan buyuklikdir. Keltirilgan rivoyatdan biz yana bir bor So'fi Oллоhyorning serqirra va murakkab shaxs ekanligi, uning olami ko'lami hali to'liq anglab yetilmaganligiga amin bo'ldik. Darvoqe, rivoyatdan kelib chiqadigan chigalliklar bor. Masalan, ismi rivoyatda ko'p zikr etilgan piri murshid Habibulloh tarixiy shaxs bo'lganmi, degan savolga qiziqib yana dalillarga murojaat etdik.

Muhtaram ustozlarimizdan R.Orzibekov o'zlarining «Zarafshon» ro'znomasida (1995 y. 17 oktyabr) bosib chiqargan «So'fi Ollohyor yaratgan hayot maktabi» maqolalarida aynan «Risolai Aziza» ga suyanib, Habibulloh ismini keltirganlar. I.Suvonqulovning «So'fi Ollohyor va uning adabiy an'analari» doktorlik dissertatsiyasining avtoreferatida esa ayrim dalillar o'zaro solishtirib, ayniqsa, So'fi Ollohyorning «Maslak ul-muttaqin» asarlarida ko'rsatilganidek... balolarni daf etuvchi murshid Hazrati Habibullohning yo'lini tutib, unga amalda payravlik qilardi. Uning pokiza ismi Navro'z bo'lib, u boshdan oyog'igacha Ollohning ishq olovida yonib turardi...» degan joylarga asoslanib, aslida Ollohyor piringning muborak nomi Navro'z bo'lib, Habibulloh deganda shoir Muhammad payg'ambarni nazarda tutganligiga ishora qilingan.¹ Balki, shayx Habibulloh hazrati Navro'zning ham piri bo'lgandir... bu to'g'rida aniq bir narsa deyish qiyin, har holda bu muammo maxsus tadqiqotni kutayapti.

Ikkinchi chigallik, ijod yo'liga endi qadam qo'yayotganlar oldida paydo bo'lishi mumkin, - shoir shaxsiyati to'g'risida so'z borganda, adashmay, qoqilmay, haqqoniy baholash uchun, ko'proq qaysi mezonlarga ahamiyat berish zarur? Kundalik kechinmalariga xos voqelikgami, hayol va tafakkur ufurib turgan she'rlarigami, og'izdan – og'izga ko'chib yurgan rivoyatlargami? Mutafakkirning ichki dunyosi, ma'naviyati, uning ijodi, she'riyati orqali to'la namoyon bo'la oladimi?

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'lib turibdiki, So'fi Ollohyor o'z she'rlarida o'zining orzu-havaslarini ham, armonlari, intilishlari ham, inson sifatidagi ojizligu buyukligini ham yashirib o'tirmadi. Natijada bilamizki, xuddi shu xislatlar uni xalq ichida ulug'ladi. Hatto zamonlarning hukmron mafkura g'oyalari, talab va mezonlari ham tafakkurning go'zal namunalari bo'lmish So'fi Ollohyor she'rlari mohiyati va ular tubida yashiringan shoir qalbi, o'zligi, nodir-

¹ Сувонкулов И. Сўфи Оллоҳёр ва унинг адабий аънаналари филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент. 1997, 13-бет.

ligini to'sa olmadi.

Shu bois shoir o'z ona – maskanini mansabdor og'a-inilari bila kelisha olmay tark etganligi¹ to'g'risidagi rivoyatlarning haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishiga shubha bilan qaragan olimlarimizni haq deb bilamiz. Darhaqiqat, teran tafakkur, o'tkir aql, nozik ta'b sohibi, tasavvuf ilmining nuqtadoni, xuddi shu ta'limot mohiyatida nafsdan qutilish a'moli yotishini chuqur idrok eta turib, mansabu nafsga bunchalik berila olmasdi. Qur'on va hadislarda uqtirilganidek, Ollohga nima maqbulu nima nomaqbulligi, hayotning mazmuni – taqdir sinovidan o'tishdan iborat ekanligini o'z she'rlarida talqin etgan alloma, shunga zid ishlarni qila olishi dargumon. Qolaversa, fikri ojizimizcha, uning butun ijodi ilohiy ilhom mahsulidir. Yana jo'nroq ko'rinsada, bir dalil sifatida shuni ham ko'rsatsak bo'ladi, - boylik bilan kambag'allik, qudrat bilan mazmunlik, farax bilan g'am, sevgi va nafratning biri inson ruhini sinash vositalari bo'lganligini ko'rsata olgan inson albatta shaytoniy nafs-unsurlardan yiroqlarda yurgan. Bunga shoirning:

Tarozu boriga iqrorimiz bor,

Nechun erkoniga ne korimiz bor.²

deganlari yaxshi isbotdir. Shoir to'g'risidagi rivoyatlarning ikkinchi guruhi uning hayot yo'liga tarjimai holiga bag'ishlangan bo'lib, bu borada ham ajoyib dalillarga duch kelib qolamiz. «Risolai Aziza» da jumladan, shunday satrlar bor:«Allohyorning o'g'li Muhammad Sodiq degan erdi. Buxoroda tug'ilmish erdi. 27 yoshi to'lg'on asl yurti Samarqandga ketdi. Allohyor Buxoroda qoldi. O'n ikki yildan so'ng Baytullohga ziyorat aylar azm aylab, bizning Bulg'or yurtini dush kelub biroz Qozon qal'asinda ta'axxud aylamishdur. Ul zamonda Bulg'orning bir komil so'fisi bor erdi. Ismini Idris Hofiz derlar. Oning ila silsilalari bor emish.Oqibat Allohyor So'fi Bulg'or yurtindan Arzrumga bormish.Anda chug' karomatlari bilinmishdin so'ng Iskandariya shahrina keldi. Anda dorilfanodin

¹ Сувоңқулов И. Сўфи Оллоҳёр. 24-бет.

² Сўфи Оллоҳёр. Тарозуйн қиёматаи баёни.Сабот ул-ожизин.29-бет.

dorulbaqoga ko'chdi. Rajab oyining 29 kuni erdi. Oллоhyor ul zamonda Yoshi to'qson yil erdi: uzun bo'yluq, qo'y ko'zlik jiyron soqollig' demishlar», bunday ma'lumotlarni boshqa manbalarda uchratmaymiz.

Bundan tashqari xalqning og'zida So'fi Oллоhyorning valiylik karomatlari to'g'risida ham rivoyatlar yurgan. Masalan, Surxondaryo yaqinida joylashgan Bobotog' tizimidagi tog'larda ilonlar makon qurib o'tgan-ketgan odamlarning ko'ngliga g'ulg'ula solib yurganda, So'fi Oллоhyor kelib ilonlar bilan «gaplashib» ularni boshqa joylarga o'tib ketishga ko'ndirgan. Bu joy hali ham Morguzar nomi bilan mashhurdir.

Allomaning necha yil umr ko'rganligiga kelsak, hurmatli olim I.Suvonqulov o'z shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotgan manzumada keltirilgan «Tarixi vafoti Eshon So'fi Oллоhyor alayxirrahma Hanifai vaqt ast» Zamonasining Abu Hanifasi Eshon So'fi Oллоhyor alayxirrahma vafotining tarixiga bag'ishlangan baytdan shoir yoshini sanab 77-80 orasida deb aniqlab bergan. Bu borada yana bir qancha ishlar amalga oshirilgan uning tug'ilgan yili va vafoti sanasi xususida So'fi Olloyorning «Sabot ul-ujizin» asariga Ubayduloh Islomqul o'g'li Alamkash sharh, shuningdek, So'fi Olloyor vafoti sanasiga ta'rix bitadi:

«Ta'rix i vafoti eshoni So'fi Olloyor

alayhi-r-rahma

Abu Hanifai vaqt ast So'fi Olloyor.

Xudoy dod bo qol va hol bisyor oro

Har on ki ta'rix i favti o' purred-

Bigo' tu:Qofu jimu g'aynu lom bishmor»

Bundan shoirning 1133/1721 yilda vafot etganligi ma'lum bo'ladi.

So'fi Olloyordan bizga bir qancha adabiy meros qolgan. So'fi Olloyorning ikkinchi kitobi hisoblanmish «Sabot ul-ujizin» nazm bilan yozilgan. Lekin uning birinchi kitobidan farqli o'laroq, tili turkiy-o'zbekcha. Mazkur kitobda ham so'fiylikning ayrim jihatlari hamda umuminsoniy qadriyatlar, odob-axloq masalalari badiiy talqin etiladi. Bu haqda shoir shunday yozgan:

Anikim ko'rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar gar duo qilsa eranlar.
Bitilsa, turkiy til birla aqida,
Ko'ngullar bo'lsa andin oromida.

Mazkur taklif shoirga ma'qul tushadi va u yurtdoshlarining bu sa'y-harakatlarini matonat deb baholaydi hamda ularning istaklarini bajarishga bel bog'laydi:

Agarchandeki bo'lsam mag'zi yo'q po'st,
Ishorat qildilar chun bir necha do'st.
Aqida so'zlarini qildim isbot,
Anga qo'ydim «Sabot ul-ojizin» ot.
O'zumdek xastalar bo'lg'aymu deb shod,
Nasoyihdin ham andak ayladim yod.

Ta'kidlaganimizdek, «Sabot ul-ojizin» asari Toshkentda 1882, 1884, 1905, 1915 yillarda, Kogonda 1910 yilda, Qo'qonda 1890 yilda qayta-qayta nashr qilingan. Shu faktning o'ziyiq So'fi Olloyorning bu asari ham xalq orasida mashhurligini, unga ehtiyoj kuchliligini isbotlaydi.¹

Shoirning «Sabot ul-ojizin» asarida so'fiylikning ayrim jihatlari, umuminsoniy qadriyatlar hamda odob-axloq masalalari badiiy talqin etilgan. Asar kompozitsiyasi Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» asarini esga soladi. Ma'lumki, «Hayrat ul-abror» dostoni yigirma maqolatdan iborat bo'lib, har bir maqolatdan so'ng uni asoslaydigan bir hikoyat keltirilgan. Hikoyatlarning asosiy qahramonlari mashhur tarixiy shaxslar, podshohlar, so'fiylar bo'lgan. Shoir bu hikoyatlar uchun ma'lum bir manbalarni asos qilib olgan. Bu hikoyatlarning genezisi-tasavvufiy manbalarga, bir qator tarixiy asarlarga borib taqalgan. So'fi Olloyor ham o'z asarini yaratishda mazkur an'anaga amal qilganligi yaqqol sezilib turadi. Ya'ni «Sabot ul-ojizin» asarida ham ma'lum bir masalalarga bag'ishlangan boblardan so'ng shu masalani quvvatlaydigan hikoyat keltiriladi. O'z navbatida

¹Ўзбекистон буюк алломалар юрти. Тошкент: «Маънавият», «Мовароуннахр» 2010. 379-380-381-382-390-391-392 бетлар.

ushbu hikoyatlar ham ma'lum bir manbalarga borib taqaladi."Sabot ul-ojizin" asari tarkibidagi hikoyatlar tarkibi ham shu taqlid keltirilgan. Jumladan, «Tama'din qochmoq bayoni», bilan birgalikda uni dalillovchi "Hikoyati Savbon", «Muhabbatsiz kishidin qochmoq bayoni» bilan "Hikoyati dev alayhil la'na", «Shayxi komil istamak va shariatga iyarmakni bayoni» bilan "Hikoyati shayx Imom Basriy", «Takabburlik qilmay, ta'vozulik ixtiyor qilmoq bayonida» bilan "Hikoyati Azizi", «Tavakkul bayoni» bilan "Hikoyati Abdulloh ibni Muborak", «Ko'zni haromdin yummoq bayoni» bilan "Hikoyati shayx Bistomiy" kabi ko'plab misollar kitobda talaygina. Ushbu hikoyatlarning genezisi ham ma'lum bir manbalarga borib taqalishi xususida yuqorida fikr yuritgan edik. Fikrimizni asardagi hikoyatni tahlil qilish bilan asoslashga harakat qilamiz.

Tahlil qilmoqchi bo'lgan hikoyatimiz asardagi pir va murid munosabatlariga bag'ishlangan bobidan keltirilgan Hasan Basriy haqidagi hikoyatdir. Hasan Basriy tarixiy shaxs bo'lib, uning tug'ilgan yili manbalarda ko'rsatilmagan. U taxminan 80 yil umr ko'rib, hijriy 110 yili Basrada vafot etgan.¹ Hikoyatda bayon qilinishicha, Shayx Hasan Basriyning bir nodon muridi bo'lib, o'zini kashfu karomat sohibi deb hisoblar ekan. Shu murid bir necha kun shayx majlisida ko'rinmay qolibdi.

Shayxning o'zi uni izlab manziliga boribdi. Hol-ahvol so'ralganda shogirdi o'z holatini shunday bayon qilibdi:

Dedi: Har gohki, xufton kelsa qarshi,

Etarman lahzada ayvoni Arshi.

Maloikdek bo'lub Arsh ichra mumtoz

Xudo birla uzun shab etarman roz!²

Ya'ni, murid har kecha Arshga yuksalib, tun bo'yi Alloh bilan sirlashib chiqishini

¹Хомидий Х. Тасаввуф алломалари . -Тошкент :Шарқ,2004. 15- бет .

²"Рисолайи Азиза"-«Саботул Ожизин» шарҳи.Тошкент:Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2000.143-144бетлар.

da'vo qilibdi. Ahvol qanday ekanligini anglagan ustoz muridga “Agar yana shunday maqomga yuksalsang, mendek bechoraning nomini ham eslashni unutm”, deb tayinlaydi. Shogird ustozining bu topshirig'ini bajarganda natija shunday bo'ladi:

Yana kechaga ul manzilga etti,
Hasan otin tiliga jori etti.
Buzulg'on ko'rdi arshi dilkushoyin,
Najozatxonaeda ko'rdi joyin.
Yaqiyn bildi muni shayton qilib qayd,
Qilur erkan uni har kechasi sayd.¹

Yana “arshga yuksalgan” shogird ustozining aytganini qilib, uning nomini tilga olgan ekan, hayolidagi “arsh” ko'zdan yo'qolib, o'zini axlatxonada ko'ribdi. Shundagina ustozining majlisidan chekinib xato qilganligini, natijada uni shayton yo'ldan adashtirganligini, karomat deb hisoblagan narsalari aslida shayton nayranglari ekanligini anglabdi. Xuddi shu mazmundagi hikoyat Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida ham mavjud. Faqat purning nomi Hasan Basriy emas, Junayd Bag'dodiy. Bu asarda ham kibru g'ururga berilgan tajribasiz murid Haqqa etganlik da'vosini qiladi. Lekin Junayd Bag'dodiy shogirdiga o'z ismini emas, balki bunday topshiriq beradi: “Bu kecha seni jannatga yuborgaylar. Borayotib, uch karra: “La havla vala quvvata illa billahil aliyul azim” deb ayt”. Bu kalimani takrorlagan murid o'zini mazbala (axlatxona)da ko'radi va kibru g'ururiga aldanib xato qilganligini anglaydi.²

“Sabotul ojizin” dagi hikoyatda ham, unga asos bo'lgan manbadagi voqeada ham bitta g'oya ilgari surilgan: tasavvuf yo'liga kirmoqchi bo'lgan har qanday kishiga ustoz-pir kerak. Yo'qsa uning yo'ldan adashishi hech gap emas. Bu haqda Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniy” asaridan shunday yozadi:

“...tariqat yo'lining qaroqchilari ko'pdir, ular nodon va kaltafahmlarni hiyla-

¹Ўша китоб, 144- бет.

²Фаридиддин Аттор. Тазкират ул- авлиё.- Тошкент :ЎЗМЭ, 1997. 94 –бет.

nayrang donasi bilan makru firib domiga tushirish payidadirlar. Shuning uchun rahnamo bo'la oladigan, pirluk (shayxlik) shart-sharoiti va ruknlari (asoslari)ni yaxshi biladigan odamni pir, deb tanlash lozim".¹

Shogird, ya'ni murid esa pirluk har bir topshirig'ini, buyrug'ini, xohishini ixlos bilan so'zsiz ado etadigan bo'lmaganicha ko'zlagan maqsadiga yetolmaydi, deb hisoblangan. "Futuvvatnomai sultoniy" asarining "Muridning odobi va uning shartlari" nomli faslida bu xususida shunday deyilgan: "...muridning lug'aviy ma'nosi istovchi, xohlovchi demaktariqat tilida "murid" deb nafsining barcha murod (istak) laridan qutulgan odamga aytadilar. Bunday odamning pirluk xohishidan o'zga xohishi bo'lmaydi".²

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida keltirilgan quyidagi ruboiyni ushbu fikr-mulohazalarning she'riy xulosasi deb aytish mumkin:

Kimni bu yo'l qa'tig'a soldi taqdir,
Pir amrini qilmasa, keraktur tag'yir,
Onsiz qadam urasa, angla makru tazvir,
Mal'un desa behrakki, desalar be pir.³

Ushbu hikoyatning mazmun-mohiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak biror bir yo'lni tanlashdan oldin kishi o'ziga ma'naviy yetuk murshid (pir) tanlay bilishi ham uning yetukligini uning ma'naviyatini belgilovchi dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Kitob e'tiqodning inson, xalq uchun ahamiyatini bayon etish bilan boshlanadi. Shoirning talqinicha:

Aqida bilmas shaytona eldir.
Agar ming yil amal qilsa, elder.

Bu kabi ibratli nasihatlar kitobda anchagina, shuning uchun ham yosh zamondoshlarimizni pokiza xulqli qilib tarbiyalashda bu kitobning ahamiyati kata hisoblanadi va asosiy dasturilamal bo'lishi bilan alohida ajralib turadi.

¹Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний .Ахлоқи Мухсиний.- Тошкент: ЎзМЭ, 2011. 33- бет.

²Ўша асар. 36- бет.

³Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик: 14- жилд.- Тошкент: Фан, 1998. 118- бет.

XULOSA

Xullas, tinim bilmas vaqt aylanaverarkan, zamonlar ortda qolib, avlodlar orasidagi masofa tobora olishlashgan sari yangi-yangi muammolar paydo bo'lib, xotira xiralashar ekan. El suygan farzandlarining nomlari atrofida doimo afsonayu rivoyatlar bo'lgan. Ularni kimdir havas bilan, kimdir hasad bilan yozib qoldirgan. Gap har bir dalilni isbotlab berishda ham emas. Eng muhimi, har bir insonning o'zidan qoldirgan yodgorligida.

Buyuk Firdavsiyning yozganlaridek:

Ikki narsa qolur shaksiz abadiy

Botirning shavkati dononing so'zi.

Asrlar o'tib ketsa hamki, o'z yurtida eslanish-e'zozlanish har qaysi rivoyatdan ham ortiq emasmi? Bundan ham jiddiyroq dalillarni qaysi rivoyatda topsa bo'ladi? 3-4 asrlardan keyin butun mamlakat milliy iftixori rutbasiga chiqa olish har kimga ham nasib bo'lavermaydi.¹ Shoirning hamma asarlariga xos bo'lgan xususiyat bitta: unda ifodalangan g'oya insonni ezgulik, yaxshilik ruhida tarbiyalash, yaxshilikka muhabbat va yomonlikka nafrat, el haqini yeyishdan qo'rqish va beva-bechoralarga rahm-shavqat qilish, umuman, ezgulik-savob ish bilan shug'ullanishga qaratilgandir. Shu sababli ham uning asarlari o'z davridayoq maktablarda yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilgan darslik sifatida foydalanilgan. Hozirgi davrda ham uning asarlaridan komil insonni tarbiyalash maqsadida foydalanish faqat naf keltiradi.² Yuqorida tahlilga tortilgan kichik hikoyatimizning ma'no,

1 Баратова Н.А.Сўфи Оллоҳёрнинг бадий-маънавий қарашлари. Самарқанд.-2002 й.56-57-бет.

2 Бобоева М.«Сабот ул-ожизин» манзумасининг ғоявий-бадий талкини. Самарқанд.-2012 й.144-бет.

mazmun-mohiyati asar haqidagi tasavvur uyg'otish uchun ham uning badiiyati va badiiyligini bizga chizib bera oladigan asar hisoblanadi. Uning mavzu ko'lemi mazmun mundarijasining mukammalligi ham yana bir bor So'fi Olloyor buyukligining isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари . -Т:, Шарқ, 2004.
2. Рисолайи Азиза - Саботул ожизин шарҳи. Т:, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2000.
3. Сувонкулов И. Сўфи Оллоҳёр. –Т:, Фан, 1995.
4. Сувонкулов И. Сўфи Оллоҳёр ва унинг адабий анъаналари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т:, 1997.
5. Сўфи Оллоҳёр. Тарозуйн қиёматаи баёни. Сабот ул-ожизин.
6. Ўзбекистон буюк алломалар юрти. Т:, «Маънавият», «Мовароуннаҳр», 2010..
7. Фаридиддин Аттор. Тазкират ул- авлиё.- Т:, ЎзМЭ, 1997.
8. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний .Ахлоқи Мухсиний.- Т:, ЎзМЭ, 2011.
9. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик: 14- жилд.- Т:, Фан, 1998.
10. Баратова Н.А.Сўфи Оллоҳёрнинг бадий-маънавий қарашлари. Самарқанд, 2002.
11. Бобоева М. «Сабот ул-ожизин» манзумасининг ғоявий-бадий талқини. Самарқанд, 2012.
12. Ўзбекистон Республикаси ФАШИда бу асарнинг бир қўлёзма нусхаси сақланади.Тартиб рақами – 849, 345 в. XIX асрнинг бошида кўчирилган, хаттоти номаълум.
13. Сувонкулов И. Сўфи Оллоҳёр. –Т:, Фан, 1995.
14. Рисолайи Азиза - Сабот ул - ожизин шарҳи. Т:, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2000.
15. И. Салоҳий Сўфи Оллоёр: маънавият қирралари//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992, 23 январ.
16. Сирожиддинов Ш. Сўфи Оллоёр илоҳиёти. 1- қисм. –Т:, 2001.

-
17. Ҳаққул И Сўфи Оллоҳёр – мутасаввуф адиб. // «Ўзбек тили ва адабиёти»
журнали, 1993, № 1.
18. Ниёзова Н. Сўфи Оллоёр ҳаёти ва ижоди. – Қарши, 1995.
19. Валихўжаев Б. Миёнқол адабий муҳитида Сўфи Оллоҳёрнинг мавқеи. //
« Мулоқот » журнали, 1996, № 3.